



## FRAZEOLIGIK BIRLIKLARNING TASNIFI VA XUSUSIYATLARI

Ismoilova Muborak Yusuf qizi

Termiz Davlat Universiteti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7472181>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 21<sup>th</sup> December 2022

Online: 22<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

Frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologizm, leksikalizasiya, birikma atamalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar, frazeologik qo'shilmalar.

Frazeologik birlik yoki frazema, ibora kelib chiqish jihatidan juda qadimiy bo'lsada, frazeologiya (iborashunoslik) fani tarixi bir necha yuz yilni o'z ichiga oladi. Rus tilshunosligida Frazeologik birlik lar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug'ullanib kelishmoqda. Jumladan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'ati rejasini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda "xalq (Rossiya) maqollari", "frazeslar" va "idiomatizmlar" o'z ifodasini topishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi. XX asrning 60-80-yillariga kelib frazeologiya chet el tilshunosligida bo'lganidek, o'zbek tilshunosligida ham tez sur'atlar bilan o'sdi [1].

Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shveysar-fransuz tilshunosi Sharl Balli (1865-1947) hisoblanadi. U o'zining "Stilistika ocherki"

### ABSTRACT

*Ushbu maqola bugungi kunda o'zbek so'zlashuvida qo'llaniluvchi frazeologik birliklar tahliliga bag'ishlangan. Maqolani yozish jarayonida frazemalarning uslubiy xususiyatlariga ham murojaat qilindi va so'zlashuv frazeologizmlarining omonimligi, sinonimligi zid ma'noliligi va polisemiyasi tahlili ham berildi. Frazeologik birliklarning xususiyatlari tahlil qilinib, ularning badiiy talqinda ifodalanishi yoritib berildi. Shuningdek, o'zbek so'zlashuv frazeologizmlarining xususiyatlarini yoritish va ularning matn tarkibida ifodalanish jihatlarini tavsiflash va hozirgi zamon o'zbek tili frazeologiyasi masalalarining yoritilishi asosiy masala sifatida ko'rildi.*

(1905) va "Fransuz stilistikasi" (1909) nomli asarlariga so'z birlashmalari, ya'ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan edi. U frazeologik birlashmalarning tashqi va ichki belgilarini birbiridan farqlagan edi. Uning ta'limotiga ko'ra, bunday birlashmalarning struktural xususiyatlari tashqi belgilari, semantik tabiati esa uning ichki belgilari sanaladi. Frazeologiya asosan frazeologik birlashmalarning semantik tabiatini, ichki belgilarini o'rganish bilan shug'ullanishi lozim [2].

**Turkiy tillar frazeologiyasini o'rganish masalalari.** Frazeologiya (yun. phrasis — ifoda, ibora va ...logiya) — 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini (Frazeologizm) uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida



tekshiruvchi bo'limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui.

Tilshunoslik bo'limi sifatidagi Frazaeologizmlar ning asosiy diqqate'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazaeologizmlar ning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutkda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farklab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir [3].

Idiomafrazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazaeologizmlarni 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, frazaeologizmlar doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni frazaeologizmlarni keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda.

Frazaeologizmlarning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida

so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va boshqa Frazaeologizmlar frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish, tasniflash va lug'atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi [4]. Frazaeologizmda ishlab chiqilgan o'ziga xos, xilmaxil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktursemantik, grammatik, vazifaviyuslubiy asoslarga kura tasnif etiladi. Struktursemantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi.

Frazaeologizmlar tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi — frazaeologizmda o'rganish masalasi 20—40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda — Y.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida frazaeologizm tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi [5].

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), frazeologizm bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan [6].



“Frazeologiya” atamasi yunoncha “frazza” (phrasis – ifoda, nutq o’rami) so’zidan olingan bo’lsada, turkiyshunoslikda dastlab bu atama turlicha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Masalan, XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek (1802-1870) o’sha davr an’analaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo’lgani singari o’z asarida “frazza” so’zini “jumla”, “gap” (предложение) ma’nosida qo’llagan [7].

“Frazeologik birikma” deyilganda esa so’zdan yirik til birliklarini tushungan. U turkiy tillardagi fe’llar haqida ma’lumot berar ekan, g’am yemoq, vujudga kelmoq, g’ussa yemoq singari til birliklarini “tarkibli fe’llar” (“составные глаголы”) deb izohlagan [8].

Ozarbayjon tilshunoslari B.Cho’ponzoda va F.Og’azoda “Turk tili grammatikasi” asarida til ilmining bo’limlari haqida fikr yuritib, “Semasiologiya”, “Stilistika” atamaları bilan bilan birga o’sha davrda tilshunoslikda keng qo’llanishda bo’lgan “idiomatizm” atamasiga qarshi o’laroq “idiotizm” so’zini ishlatgan. Mualliflar bu asarida turk tilidagi idiomalarga oid boshga solmoq, boshga tushmoq, ko’z ko’rmoq, ko’zum (sendin) suv ichmoq kabi birliklarni misol sifatida keltiradilar. Umuman, frazeologiya turkiyshunoslikda nisbatan yosh sohalardan biri sanaladi, chunki uni sistemali ravishda o’rganish faqat asrimizning 40-50-yillariga kelib boshlandi.

Turkiy tillarning grammatik qurilishini o’rganuvchi tadqiqotchilar qism(komponent)larga ajralmaydigan birikmalarning nutqda qo’llanish xususiyatlariga ham ahamiyat berib kelganlar. Bunday birikmalarning funksional jihatdan so’zga yaqin ekanligini

hisobga olib, ayrim turkiyshunoslar ularni leksik so’z birikmalari yoki leksik birliklar (leksik birlashmalar), deb hisoblaganlar hamda sintaksis yoki so’z yasalishi sohalarining o’rganish ob’ekti doirasiga kiritganlar. Boshqa tadqiqotchilar esa bunday birikmalarni leksikalizatsiyalashgan birikmalar yoki leksik ma’noga ega bo’lgan yumuq birikmalar deb hisoblab, ular sintaksisga ham, so’z yasalishiga ham taalluqli bo’lmay, tilshunoslikning mustaqil o’rganish ob’ekti bo’lishi kerak, degan fikrni olg’a surganlar. Shuningdek turkiyshunoslikda frazeologik birikmalar gapning ajralmas bo’laklari bo’lib, ular leksikologiya yoki frazeologiyaning o’rganish ob’ekti bo’lishi lozim, degan qarashlar ham 60-yillardayoq yuzaga kela boshlagan edi. Turkiy frazeologiyaning boshlovchilari, hech shubhasiz, S.K.Kenesboev va Sh.U.Rahmatullaevlar hisoblanadi. Ularning 40-yillarning ikkinchi yarmi va 50-yillarda yuzaga kelgan tadqiqotlari turkiy frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o’ynadi. Shu vaqtlarda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari ham turkiy frazeologiyaning taraqqiyotida sezilarli iz qoldirdi. Keyingi qirq - ellik yil mobaynida turkiy tillardagi frazemalarni intensiv o’rganish sohasida muhim yutuqlar qo’lga kiritildi.

Bu davrda S.N.Muratovning “Turkiy tillarda turg’un so’z birikmalari” (1961) nomli monografiyasi, Sh.U.Rahmatullaevning “O’zbek frazeologiyasining ayrim masalalari” (1966), G.A.Bayramovning “Ozarbayjon tili frazeologiyasining asoslari” (1970), G.X.Axunzyanovning “Idiomalar” (tatar tili materiallari asosida tadqiqot, 1974), Z.G.Uraksinning “Boshqird tili frazeologiyasi” (1975), M.F.Chernovning



“Hozirgi zamon chuvash tili frazeologiyasi” (1988), N.Sh.Shammaevaning “Ingliz va turkman tillaridagi frazeologik birliklarning chog’ishtirma tadqiqi” (1994) nomli doktorlik dissertatsiyalari, bir qancha monografiyalar, nomzodlik dissertatsiyalari ilmiy maqolalar yaratildi.

Rus tilshunosligida bo’lgani singari turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma’noda tushunish hamon davom etib kelmoqda. Jumladan, akademik S.K.Kenesboevning fikricha, frazeologiya doirasiga keng ma’noda barcha turg’un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birikmalar, so’zlarning noidiomatik, turg’un frazeologik guruhlari va juft so’zlar) kiradi. Ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat turg’unlik va tilda tayyor holda mavjudlikdir.

S.K.Kenesboev turg’un so’z birikmalari orasidan frazeologiyani tor ma’noda tushunish uchun bevosita asos bo’la oladigan guruhlarni alohida ajratib ko’rsatadi. Bunday guruhlarga idiomatik va noidiomatik birikmalar, akad.V.V.Vinogradov frazeologik qo’shilmalarga kiritgan frazemalar hamda qo’shma juft oborotlar kiradi. Olim idiomatik birikmalarning boshqa tip turg’un birikmalardan, jumladan maqol va matallardan farqini ham alohida belgilashga intiladi.

Tadqiqotchining fikricha, idiomalarning semantik o’ziga xosligi ularning nutqda yaxlit (ustama) ko’chma ma’noda qo’llanilishi, bu ustama ma’no komponentlari anglatgan ma’noga aloqador emasligi bilan belgilanadi. Maqol va matallar esa o’z semantikasiga ko’ra mustaqil jumla (высказывание) hosil qiladi. Idiomalar S.Kenesboev talqinicha, maqol va matallardan farq qilib, cheklangan tarkibdagi komponentlardan

tuziladi. To’g’ri, maqol va matallar semantikasini idiomalar semantikasidan farqlashda miqdoriy mezon (komponent tarkibi) ma’lum rol o’ynashi mumkin. Ammo frazemalar tiplari orasidagi semantik farqlarni belgilashda miqdoriy mezondan ko’ra, bulardagi leksik-semantik munosabatlar belgilovchi omil sanaladi.

Darhaqiqat, haqiqiy frazeologik birikmalar deb qaralayotgan birikmalar (ular ikki yoki uch komponentli emas, balki undan ham ko’p komponentli bo’lishi mumkin) ayrim xususiyatlari bilan leksik birliklar, jumladan qo’shma so’zlarga yaqinlashadi. A.A.Yo’ldoshevning fikricha, leksik va frazeologik birliklar o’rtasidagi farq struktural jihatdan emas, balki semantikfunksional, aniqrog’i, uslubiy jihatdan ko’proq ko’zga tashlanadi.

Frazeologik birikmaning va qo’shma so’zlarning semantik strukturasi o’rtasidagi farqni ko’rsatar ekan, A.A.Yo’ldoshev qo’shma so’zning leksik ma’nosi obraz orqali emas, balki bevosita ifodalanadi, frazeologik birikmalarda esa ma’no ko’chim (majoz) orqali ifoda etiladi, lekin frazeologik birikmadagi bu ko’chma ma’no komponentlarning nominativ, o’z ma’nosiga ko’pincha tayanadi, deb hisoblaydi. Shunday qilib, olim frazeologik birikmalarning ichki mohiyatini xarakterlashda ularning obrazlilikini birinchi planga qo’yadi. “Eng muhimi,- deb yozadi A.A.Yo’ldoshev, - leksikografik planda ajratilayotgan birlik qo’shma so’zmi yoki frazeologik birikmami, qaysi tomonning xususiyat(mezon)lariga mos keladi, shuni belgilashdan iborat.

Qo’shma so’zlar frazeologik birikmalardan prinsip jihatdan juda kam farq qiladi, faqat biri (keyingisi)ning mazmunida obrazlilik yetakchi o’rin tutadi”. Tatar tilshunosi F.A.G’aniev ham qo’shma so’zlarning



frazeologik birikmalardan asosiy farqi ularda obrazlilik xususiyatining mavjud emasligidir, deb ta'kidlagan edi. Ammo, bizningcha, barcha tillarda ham ko'pgina so'zlar, jumladan qo'shma so'zlar mazmunida biror tushuncha haqidagi obrazli tasavvur yotadi. Masalan, oq bilak deyilsa, qo'lini sovuq suvga urmaydigan, dangasa kishi haqidagi obrazli tasavvur ko'z oldimizga keladi. Shuningdek, A.A.Yo'ldoshev tomonidan frazeologiya ob'ekti doirasiga kiritilmagan maqol va matallarning asosiy qismi ham obrazli asosga ega. Shunga muvofiq, bizningcha, obrazlilikni frazeologik birikmalar bilan qo'shma so'zlarni o'zaro farqlash uchun asosiy belgi, mezon deb hisoblash unchalik ma'qul emas. Umuman olganda, A.A.Yo'ldoshev va F.A.G'anievlar taklif etgan frazeologik birikmalar bilan qo'shma so'zlarni o'zaro qiyoslash usuli turkiy tillarga xos frazemalarning mohiyatini ochishga katta yordam beradi.

L.S.Arkit'skaya "Qo'miq tilida qo'shma va sostavli fe'llar" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida ham qo'shma fe'l bilan frazeologik birikmalarni farqlashdek turkiyshunoslikda dolzarb bo'lgan muammoni ma'lum darajada hal etishga intiladi. Ish muallifi kiprik qoqmoq, do'st tutmoq, esida tutmoq kabi birliklarni frazeologik so'z birikmalari deb talqin etadi. Olimaning fikricha, bunday turg'un, yarim erkin qurilmalar sostavli fe'llardan frazeologik birikmalarga o'tish jarayonida turadi, chunki ular ko'p hollarda ko'chma ma'noda qo'llanadi. Boshqird tilshunosi Z.G.Uraksin ham frazeologiya ob'ektini tor doirada tushunish tarafdorlaridan biri sanaladi. Uning talqiniga ko'ra, frazeologik birikmalar turg'un so'z birikmalarining bir qismi hisoblanib, "tayyor holda takror qo'llanishi, komponentlar orasidagi

bog'lanishning turg'unligi va ma'noning yaxlitligi" bilan xarakterlanadi. frazeologik birikmalarni boshqa tipdagi turg'un birikmalardan farqlashning asosiy belgisi obrazlilikdir, deydi Z.G.Uraksin. "So'zda, - deb ta'kidlaydi u, - to'g'ri (nominativ) ma'no yetakchi (dominant) bo'lsa, frazeologik birikmada obrazli-nominativ ma'no yetakchidir. So'z asosan ifodalasa, frazeologik birikma har doim tasvirlaydi.

Frazeologik birikmada obrazli ma'no global xususiyatga ega". To'g'ri, so'zning nominativ ma'nosi so'z uchun asos hisoblanadi, lekin bu narsa so'zda nominativ leksik ma'noning bo'lishi yetakchi xususiyatdir, deyishga huquq bermaydi. Chunki har qanday tilda ham nomlash va emotsional-baho funksiyalarini o'zida mujassamlashtirgan tulki, uchar, olg'ir, danak singari minglab so'zlarni topish mumkin. Shuningdek, frazeologik birikmalar orasida ham faqat ifodalash-nomlash xususiyatiga, ya'ni nominativ funksiyaga ega bo'lganlari anchagina bor. Masalan, ikki og'iz, uch pul, bir og'iz, tili bir, daryodan bir tomchi, har ehtimolga qarshi, qora tortib kabilar.

• Frazeologiya – tilshunoslikning bo'limlaridan biri hisoblanadi.

**Frazeologiya** – lotin tilidan olingan bo'lib, prasis – ifoda, logos – ta'limot deganidir.

• Tilda ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topib, ko'chma ma'no ifodalaydigan, ma'nosi bir so'zga teng keladigan turg'un birikmalar **ibora (frazеologik birlik)** deyiladi.

• Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga **frazеologizmlar** deyiladi



• Tilning iboralarni o'rganadigan bo'limi **frazeologiya**, iboralar yig'indisi esa **frazeologizm** deb yuritiladi.

• Masalan, tilini tiymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, o'takasi yorilmoq va hokazolar . . .

## Frazeologiya birliklarining tasnifi

### Ma'no darajasiga ko'ra turlari.

#### Frazeologik qo'shilma

*qo'l qo'ymoq-  
imzo  
chekmoq*

#### Frazeologik birlashma

*tepa sochi  
tikka bo'ldi-  
qo'rqib ketdi.*

#### Frazeologik chatishma

*pixini  
yorgan-  
ayyor*

Frazeologik birikmalar markazida turgan so'z turkumlari

a) otli frazeologik birikmalar: *og'zi qulog'ida*

b) fe'lli frazeologik birikmalar: *aqlini yegan*

**Frazeologik birliklarning ko'p manoliligiga ko'ra ko'ra tasnifi**

#### 1. Bir ma'noli frazeologik birliklar

Xuddi bir ma'noli so'zlarga o'xshab bir ma'noli frazeologik birliklar ham tarkibidagi so'zlarning ma'nolaridan kelib chiqadigan bitta ma'noga ega bo'ladi. Masalan *bir yoqadan bosh chiqarmoq* iborasi "hamjihat bo'lmoq" degan bitta ma'noni, yer bilan osmoncha iborasi "juda katta, beqiyos (farq)" degan bitta ma'noni ifodalaydi.

#### 2. Ko'p ma'noli frazeologik birliklar

Ko'p ma'noli leksemaga o'xshab polisemantik iboralar ham bir-biriga bog'langan kamida ikkita ma'noga ega bo'ladi. Ko'p manoli iboralar ko'chma ma'nolari ikkitadan beshtagacha borishi mumkin.

1) ikki manoli iboralar: *yo'lga tushmoq*. 1. *Kim*. jo'namoq, keta boshlamoq. 2. To'g'ri yo'lga qaytmoq.

2) uch manoli iboralar: *bino qo'ymoq* – 1. *o'ziga*. Ortiqcha baho bermoq, yuksak fikrda bo'lmoq. 2. *o'ziga*. Qiyofasiga alohida e'tibor bermoq. 3. *Kimga* yoki *nimaga*. E'tiqod bilan qaramoq.

3) to'rt manoli iboralar: *bosh ko'tarmoq*. 1. *Kim*. Qaramoq. 2. *Kim nimadan*. Qilib turgan ishini to'xtatmoq. 3. *Nima*.



Qo'zg'almoq, harakatga kelmoq. 4. *Kimga qarshi*. Kurashga chog'lanmoq.

Frazeologik birlik yirik til birligi bo'lib kamida ikkita mustaqil turkum leksemasidan (so'zlardan) tarkib topadi. Shunga ko'ra, frazeologik birlikning ifoda plani deb, leksemalar va ularni bog'lash uchun xizmat qiladigan morfemalar ko'zda tutladi. O'zaro sintaktik bog'langan bu leksemalar mohiyatiga ko'ra so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlik (nutq birligi) deb emas, balki semantic birlik (til) birligi deb qarashga olib keladi. Shu sababli so'z birikmasiga yoki gapga tenglik haqida gapirganda, frazeologik birlikning ichki sintaktik qurilishi ko'zda tutiladi, frazeologik birlikning tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo'ladi.

### Leksikalizatsiyalashgan

so'zlar. Leksikalizatsiya so'zi grekcha lexikos – «lug'aviy» so'zi bilan aloqador bo'lib, nemischa lexikolislezen – «bir so'zga aylanmoq» demakdir.

Leksikalizatsiyalashgan so'zlar ma'nosi tarkibidagi komponentlar ma'nosining umumiy yig'indisidan iborat bo'lgan, bir leksekaga aylanish darajasidagi to'g'ri ma'noli turg'un uyushmalardir.

Leksik-sintaktik usul garchi so'z yasashning maxsus usullaridan bo'lmasa ham, unga juda yaqin turadigan tiplardan biridir. Bunda yangi so'zning paydo bo'lishi so'z birikmasining, ayrim gaplarning, undagi elementlarning tamoman qo'shib ketib bir butunlik hosil qilishidir. Masalan, *hol buki* (aslida ega va kesim), *o'zi bilarmon*, *bari bir*, *u qadar* kabi. Ko'rinadiki, bunday yasash frazeologiya bilan ham

bog'liq bo'lib, yangi so'z yasash so'z birikmalari va gaplarni leksikalizatsiya qilish natijasida paydo bo'ladi. Bunday birikmalar tarkibidagi komponentlar ma'nosi ko'chma bo'lmaganligi uchun frazeologiya emas, balki yangi yasalmi hosil qiladi. Bunday leksik yasalmalar ham hali to'la birikmagan holda to'g'ri ma'noli turg'un uyushmalarni tashkil qiladi.

Birikma atamalar. To'g'ri ma'noli turg'un iboralarning yana bir turi birikma atamalardir. Iboralarning bu turini birikma atamalar deb nomlanishiga sabab ularning ma'lum darajada termin (istiloh)larga yaqinligidir, sababi birikma atamalar ham terminlar kabi birikma holda bir tushuncha ifodalaydi.

Birikma atamalardan kelib chiqadigan umumiy tushuncha uning tarkibidagi komponentlar ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, unda kesim bo'lak tushuncha mohiyatini bildiradi va tobe bo'lak uning nimaga xoslanganligini belgilaydi yoki ma'no mo'ljallangan tushuncha hajmigacha torayib boradi. Masalan, *agrar masala*, *ishlab chiqarish boshqarmasi*, «*O'zbekiston ovozi*», «*Xalq so'zi*» kabi iboralarda birikma atamasining ma'no mohiyati hokim bo'lakda bo'lib, tobe bo'laklar esa uning nimaga taalluqli ekanligini ko'rsatib keladi. Birikma atamalar ma'nosi qanday xarakterda bo'lishidan qat'i nazar, nomlovchi – nominativ xususiyatini o'zida saqlaydi, bu uning ma'nosi har ikkala bo'lak ma'nosi sintezidan kelib chiqishini ko'rsatadi.

Birikma atamalar asosan ot turkumida bo'ladi, bu ularning terminlar bilan aloqasini yaqqolroq ko'rsatadi: *aylanma harakat*, *kvadrat tenglama*, *tepkili terlama*, *tutuq belgisi* kabi. Lekin bu ularning so'z turkumlariga nisbatan chegaralanganligini ko'rsatmaydi. Ular sifat (*nafsi buzuq*, *arzon-*



garov), fe'l (*aybga buyurmaslik, aksiga olmoq*), ravishlarda (*aks holda*) ham uchraydi.

Turli tashkilot, korxonalar, muassasa, matbuot mahsulotlariga berilgan nomlar ham turg'un uyushmani tashkil qilsa, birikma atamalar sirasiga kiradi.

Ko'chma ma'noli turg'un iboralar. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlardan tarkib topgan, tarkibidagi bo'laklarning ma'nosi qisman yo butunligicha ko'chgan, majoziy ma'noda qo'llanadigan, lekin birikma butunligicha bir nominativ ma'no anglatadigan lug'aviy birliklarga ko'chma ma'noli turg'un iboralar deyiladi. Ko'rinadiki, to'g'ri ma'noli turg'un iboralar bilan ko'chma ma'noli turg'un iboralarning farqi ularning birikish usulida emas, balki ma'no xususiyatidir: ularning birida ma'no turg'un, ikkinchisida ko'chgan bo'ladi.

Qiyoslang: *demokratik hokimiyat va bilim bulog'i*. Misollarning birinchisida har ikkila bo'lak o'z ma'nosida, ikkinchisida esa *bulog'* so'zining ma'nosi ko'chgan, majoziy. Demak, birinchi uyushma to'g'ri ma'noli turg'un uyushma, ikkinchisi esa ko'chma ma'noli turg'un uyushmadir. Bu uyushmalar uchun tarkibining barqarorligi, nutqda yaxlitligicha qo'llanishi va tilda tayyor holda mavjudligi ularning umumlashtiruvchi belgisi bo'lsa, tarkibidagi qismlarda obrazlilikning mavjud yoki mavjud emasligi, semantik qayta shakllangan yoki shakllanmaganligi ularning farqli belgilaridir. Yuqoridagi misollarning birinchisida dastlabki uch belgi mavjud, keyingi ikki belgi mavjud emas; ikkinchi misolda dastlabki to'rt belgi bor, oxirgisi yo'q. *Og'zi qulog'ida* uyushmasida esa barcha belgilar mavjuddir.

Ana shu farqlovchi belgilarga ko'ra ko'chma ma'noli turg'un uyushmalarining ikki turini ko'rsatish mumkin: *parafrazalar va frazeologizmlar*.

### *Frazeologizmlar*

Ko'chma ma'noli turg'un iboralarning yana bir turi *frazeologizmlardir*. Tarkibidagi qismlar o'rtasida sintaktik aloqa mavjud bo'lmay, tilda ilgari bir sintaktik bo'lak yoki gap sifatida barqaror mavjud bo'lgan, tarkibidagi bo'laklarning ma'nosi qisman yoki butunligicha ko'chgan holda qo'llanadigan, leksik-semantik jihatdan bir lug'aviy birlikka teng keladigan ko'chma ma'noli turg'un iboralarga *frazeologizmlar* deyiladi.

Masalan, *og'zi qulog'ida va boshi osmonga yetdi* birikma va gap holidagi frazeologizmlar yuqoridagi ta'rifga ko'ra tahlil qilinsa, ularning har ikkilasida:

- 1) ibora tarkibidagi bo'laklar o'rtasida sintaktik aloqa yo'q;
- 2) ma'no butunligicha ko'chgan;
- 3) gapga teng ibora;
- 4) bir lug'aviy birlik (xursand, mamnun);
- 5) doimiy barqaror til birligi holati namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikning bu sohali XX asrning 60-yillaridan boshlab, rus va o'zbek tilshunosligida keng tadqiq qilib kelinmoqda. O'zbek tilshunosligida ham bu sahada yirik-yirik ilmiy tadqiqot ishlari yaratilgan, monografiyalar yozilgan va lug'atlar tuzilgan. Shunga qaramay, bu soha ayrim tomonlari bilan munozara-ligicha qolib kelmoqda. Bular:

1. Avvalo, termin haqida. Leksikologik adabiyotlarda bu haqda *frazeologiya, frazeologizm, frazema* atamaları mavjud bo'lib, ularning har biridan o'z o'rnida foydalanilmayapti. Aslida, «frazeologiya» – tilshunoslikning frazeologik birliklar haqida ta'limot beruvchi maxsus sohasi,



«frazeologizm» – frazeologik iboralarning jami, «frazema» – bir lug'aviy birlikka teng ibora;

2. Frazeologizmlar semantik hodisa ekanligi hisobga olinib, ularning turg'un birikma ekanligi inkor qilinmoqda, bunda ular frazeologizmlar tarkibidagi ayrim so'zlarning o'rnini almashtirish yoki ularning o'rniga boshqa so'z qo'yish mumkinligini nazarda tutmoqda;

3. Frazeologizmlarni lug'aviy birlik sifatida ularning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlarini aniqlash bilan chegaralanishmoqda.

Shunday fikrlar berilishiga qaramasdan, frazeologizmlar yaxlit bor ma'no ifodalaydigan so'z birikmasi yoki predikativ qo'shilma qolipidagi til birligidir. Yaxlit bir ma'no berishiga ko'ra u so'zga o'xshaydi ham, frazeologizm sub'yektning obyektga munosabatini bildirganligi va majoziyliigi bilan so'zdan farq qiladi ham. Lekin, baribir, tilda bir lug'aviy birlik sifatida qabul qilinadi. Masalan, *qo'y og'zidan cho'p olmagan* frazeologizmi yuvosh so'ziga teng. Frazeologizmlar so'zlar birligidan tarkib topgan birikma yoki predikativ qo'shilma qolipli bo'lsa ham, nutq jarayonida birikma yoki predikativ qo'shilma kabi yuzaga kelmaydi, balki tilda tayyor lug'aviy birlik sifatida mavjudligi holda nutq uchun shundayligicha tanlanadi. Chunki ular nutq birligi emas, til birligidir.

Frazeologizmlar so'zlar kabi shakl va ma'no butunligicha ega, chunki so'zlar tovushlardan tarkib topgani kabi, frazemalar ham so'zlardan tarkib topadi: *ko'ngli bo'sh* – rahmdil, *boshi osmonga yetdi* – xursand kabi. Lekin frazemalar tarkibidagi so'zlar o'z ma'no mustaqilligiga ega emas. Umumiy ma'no ibora tarkibidagi so'zlar yig'indisining

ko'chma ma'nosidan kelib chiqadi. Shuning uchun birikma tarkibidagi bir nechta so'z butunligicha gapda bir sintaktik bo'lak vazifasida keladi: *Ko'z ochib yumguncha borib keldi* gapida *ko'z ochib yumguncha* butunligicha holdir.

Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi, shu bilan u oddiy leksik ma'noli so'zlardan farqlanadi: *xufiya* – yeng uchida, *xursand* – og'zi qulog'ida kabi. Bunday ma'nolar turlicha yuz beradi:

- 1) ibora tarkibidagi so'zlardan biri orqali: *achchiq gap, gapning tuzi* kabi;
- 2) komponentlarning umumiy ma'nosi asosida: *og'zi qulog'ida, tili tutildi* kabi;
- 3) tarkibidagi komponentlarning ma'nolariga aloqasiz holda: *yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil siqmaydi* kabi va b.

Frazeologizmlarning ana shu sintaktik-semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni uchga ajratish mumkin:

1. Frazeologik butunliklar.
2. Frazeologik chatishmalar.
3. Frazeologik qo'shilmalar.

Frazeologik butunliklar. Tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq, shularga asoslangan umumlashtiruvchi ko'chma ma'noli turg'un iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi. Misollar: *Hali nima bo'ladi, nima yo'q, to'ydin oldin nog'ora chalaveradi bular* (H.Hakimzoda). *Hali ham ko'chalar yoq` tushsa yalaguday* (G'.G'ulom.).

Frazeologik butunlikning ma'no xususiyatlari bir uyushmaning to'g'ri va ko'chma ma'nolarda qo'llanishida yanada yaqqolroq ko'rinadi:

- *Afandi! Sira og'zingizni ochmadingiz-a?*
- *Og'iz ochish bundan kam bo'ladimi? – dedi afandi. – Esnayverib, og'zimning*



*yirtilishiga sal qoldi-ku!* («Afandi latifalari» dan).

Ko'pgina frazeologik butunliklarda ularning umumiy ma'nosini tarkibidagi komponentlarning konkret, to'g'ri ma'nolari bevosita ko'rsatib turmaydi. Bu turli sabablarga ko'ra yuz beradi:

1) frazeologik butunlik o'zi yaratilgan sohadan boshqa sohaga ko'chirilganda: *mum tishlamoq* iborasi dastlab kasblarga xos ibora bo'lib, keyinchalik ma'nosi kengayib, «gapirmaslik» ma'nosida qo'llana boshlagan;

2) frazeologik butunliklar asosida mubolag'a, majoz bo'lganda: *o'zi ham qirq qozonning qulog'ini tishlaydi* (jonli so'zlashuvdan);

3) frazeologik butunliklar turli ruhiy holatni, abstrakt tushunchalarni ifodalaganda: *qovog'idan qor yog'moq, fig'oni falakka chiqmoq* kabi.

Frazeologik chatishmalar. Iboradan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolaridan kelib chiqmaydigan, ular orasida patensial bog'lanish mavjud bo'lmaydigan ko'chma ma'noli turg'un iboralarga frazeologik chatishmalar deyiladi: *to'nini teskari kiyimoq, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq, o'pkasini qo'ltiq'lamoq* kabi.

Bunday iboralar ma'no jihatidan frazeologik butunliklarga nisbatan ancha taraqqiy etgan bo'ladi. Frazeologik chatishmada ibora ma'nosi bilan ibora tarkibida so'zlar ma'nosi bir-biridan uzoqlashgan, hatto unga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Quyidagi misolga e'tibor bering: «*Boshni olib chiqib ketish*» qanday fojealar, qanday ko'rgiliklarning natijasi bo'lganligini hozirgi odamlar esdan chiqargan, yoshlarga esa hatto kulgili

*tuyilishi mumkin: chiqib ketgan odam boshini qo'yib ketarmidi?* (A. Qahhor).

Frazeologik qo'shilmalar. Polisemiya haqida gap borganda ta'kidlab o'tildiki, ko'p ma'noli so'zlar nutqdan (kontekstdan) tashqarida faqat asosiy ma'nonigina ifodalab, uning boshqa – qo'shimcha ma'nolarini aniqlab bo'lmaydi. Polisemantik so'zlarning ma'nosi o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarni qurshagan so'zlarga bog'liq. Bu, ayniqsa, so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini aniqlashda yaqqol sezilib turadi, o'z navbatida, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari erkin va bog'li bo'lishini ham ko'rsatadi.

So'zdan bevosita anglashuvchi ma'no erkin ma'no, so'zlarning uyushib kelishi natijasida reallashib keladigan ma'no bog'li ma'no deyiladi. So'zlarning uyushib kelishi natijasida hosil bo'ladigan bunday ko'chma ma'noga frazeologik bog'li ma'no ham deb ataladi.

Frazeologik bog'li ma'noga ega bo'lgan so'zning nutqdagi mavjud turi uyushmalarda turlicha bo'ladi. Masalan, tuz so'zi alohida olinganda osh tuzini anglatga, gapning tuzi uyushmasida «asl», «mag'z» ma'nolarini bildiradi. Bu ma'nolar butun uyushmadan kelib chiqadi, chunki uyushma tarkibidagi komponentlardan birining ko'chma ma'noda kelishi bunga sabab bo'ladi. Bu o'rinda frazeologik birlikning hosil bo'lishiga asos uyushma tarkibidagi ko'chma ma'no – so'z bo'lsa ham, uyushma tarkibidagi komponentlardan biri ko'chma ma'noning kelib chiqishiga manba bo'ladi, ikkinchisi ma'noning reallashuvi uchun ma'lum sharoit yaratadi.

Komponentlaridan birining ko'chma ma'nosiga asoslanadigan va komponentlariga xos mustaqil ma'no markazlarini saqlab qoladigan



uyushmalar frazeologik qo'shilmalar deyiladi. Masalan, aqli bor chaynaydi gapning tuzini («Folklor»dan). Bir so'zning to'g'ri ma'nosi bilan iboradagi bog'li ma'nosi quyidagi matnda yanada yaqqolroq ko'rinadi: Bog'ning guli shu kunlarda haqiqatan ham bog'ning guli

bo'lib turipti-da! Aniqki, gul so'zi birinchisida o'z, ikkinchisida ko'chma ma'noda, shuning uchun ikkinchi ibora frazeologik qo'shilmaga aylangan (bog'ning guli). Yana misollar: *uyning eshigi – baxt eshigi*; *nordon-nordon mevalar – nordon-nordon gaplar* va b.

## References:

1. Sh.Rahmatullaev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b.
2. Sh.Rahmatullaev. Nutqimiz ko'rki, Toshkent, 1970, 5-43-b.
3. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 1992, 55-126-b.
4. Hozirgi zamon o'zbek tili, Toshkent, 1957, 152-181-b.
5. A.Mamatov. Frazeologizmlarning shakllanish asoslari, Toshkent, 1996, 5-48-b.
6. Ya.Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 1969, 51-55-b.
7. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 2005, 220-225-b.
8. Sh.Rahmatullaev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, Toshkent, 1978, 3-21-b.